
TOSHLOQLIK MIRISHKORLAR G'ALLA REJASINI BAJARISHDI

Joriy yilda Toshloq tumanida 179 ta fermer xo'jaligi tomonidan 5070 gektar maydonda boshoqli don ekinlari agrotexnika talablari darajasida parvarishlaganligi tufayli dalalarda mo'l hosil yetishtirildi. O'rim-yig'im ishlarini o'z vaqtida boshlagan fermerlarimiz joriy yilda belgilangan davlat rejasini oshirib bajardilar.

Mavjud 15 otryadga birlashtirilgan 15 ta o'rim kombaynlarining kuchidan unumli foydalanildi va tumanimiz g'allakorlari davlatga don sotish yillik rejasini oshirib bajarishdi.

G'allakorlarimiz g'alla qabul qilish punktlariga joriy yilning 27 iyuniga qadar 13 ming 600 tonna don topshirishib, reja ortig'i bilan bajarildi. Har gektar maydondan o'rtacha hosildorlik 70-80 sentnerni tashkil qildi.

Hali o'rilmagan g'alla maydonlari ko'p, xalqimiz rizq-ro'zi bo'lgan don boshoqlarini yig'ib - terib olish ishlari jadal davom ettiriladi.

Zafar muborak bo'lsin, toshloqlik g'allakorlar!

2024-06-27 18:20:26